

# XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

---

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

**PUBLIC EDUCATION**

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2022**

**2-son**

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

|                                                                                     |                                         |                                                                                                                               |
|-------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|    | <b>TAHRIRIYAT</b>                       |                                                                                                                               |
|                                                                                     | 4                                       | Ilm izlash, ijod qilish – inson kashf etgan amallar, faoliyatlar ichida eng serzahmati                                        |
|    | <b>TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI</b>     |                                                                                                                               |
| N.Abdullayeva                                                                       | 5                                       | Pedagogik mas'uliyatni shakllantirish – kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning integral komponenti sifatida              |
| A.Rasulov                                                                           | 10                                      | Umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy ta'lim klassteri sharoitida iqtisodiyot bilim asoslari fani o'qitishning zarurligi |
| D.Axmadjonov                                                                        | 13                                      | Akseologik yondashuv asosida bag'rikenglik kompetensiyasini rivojlantirish                                                    |
| T.Sultonov                                                                          | 17                                      | Ilk boshlang'ich ta'lim pedagogikasining muhim jihatlari va ularning izohlari                                                 |
| S.Toshboyev                                                                         | 21                                      | Ta'limda innovatsiyalar va ularning tahlili                                                                                   |
|    | <b>TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI</b>     |                                                                                                                               |
| J.Ravshanov                                                                         | 25                                      | O'quvchilarda tahliliy kompetensiyalarni shakllantirishda an'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanish                           |
| K.Abdullayev                                                                        | 27                                      | Adabiyot darslarida tarix, tasviriy san'at, musiqa fani materiallaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari         |
| H.Bakiyeva                                                                          | 31                                      | Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish                              |
| M.Mamadjanova                                                                       | 34                                      | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini mantiqiy masalalarni yechishga metodik tayyorgarligini ta'minlash                   |
| G'.Nabiyev                                                                          | 38                                      | Maktab o'quvchilarida tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantirish                                                             |
| Z.Umarova                                                                           | 40                                      | Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodikasi                                            |
| D.Ismoilova                                                                         | 44                                      | K.D.Ushinskiyning pedagogik merosini o'qitish interfaol metodlar                                                              |
|  | <b>TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT</b> |                                                                                                                               |
| Sh.Qo'qonboyeva                                                                     | 47                                      | Bo'lajak fizika o'qituvchilarining boshlang'ich kasbiy kompetentligining shakllanganlik darajasini aniqlash                   |
|  | <b>ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI</b> |                                                                                                                               |
| R.Musurmonov<br>A.Suyarov                                                           | 52                                      | Ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuv imkoniyatlari                                                                           |
| F.Maxmudova                                                                         | 56                                      | Ta'limda integrativ yondashuvni tashkil etish pedagogik muammo sifatida                                                       |
| D.Ximmataliyev<br>B.Xayridinov                                                      | 59                                      | Masofaviy ta'limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya vositalarining ahamiyati                                               |
| S.Qorayev<br>N.Tirkashev                                                            | 62                                      | Kompetensiyaviy ta'lim – o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarida sifat uyg'unligining asosi                                    |
| A.Abdullayev                                                                        | 65                                      | Professional ta'lim tizimida arxitekturaviy loyihalashni o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish                        |
| I.Qodirov                                                                           | 68                                      | Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida tarix darslarinin samarali tashkil etish                                |

|                                                                                     |                                               |                                                                                                                                                |
|-------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| S.Akbarova                                                                          | 71                                            | Kredit-modul tizimida ta'limning samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarni qo'llash                                                  |
| Y.Sultanov                                                                          | 76                                            | 3D texnologiyasi asosida "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish" fanini o'qitishning metodikasini takomillashtirish |
|    | <b>MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI</b>          |                                                                                                                                                |
| B.Narzullayeva                                                                      | 80                                            | Millatlararo do'stlik aloqalarini rivojlantirishda mahallaning o'rni                                                                           |
| S.Muxammadiyeva                                                                     | 83                                            | Talabalarni tarbiyalashda Ahmad Yassaviyning e'tiqod tarbiyasi haqidagi fikrlaridan foydalanish                                                |
|    | <b>TA'LIMDA MENEJMENT</b>                     |                                                                                                                                                |
| F.Jumanova                                                                          | 87                                            | Yangi O'zbekistonda bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mazmuni                                                |
|    | <b>HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA</b>               |                                                                                                                                                |
| M.Jo'raxo'jayev                                                                     | 90                                            | Imkoniyati cheklangan bolalar uyda yakka tartibdagi ta'limni tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari                                       |
|    | <b>MAKTABGACHA TA'LIM</b>                     |                                                                                                                                                |
| G.Nazirova<br>V.Ganiyeva                                                            | 95                                            | Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish yo'llari                                            |
| D.Ganiyeva                                                                          | 99                                            | Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlantirishda intellektual o'yinlarning ahamiyati                                                      |
| S.Achilova                                                                          | 103                                           | Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy fazilatlarini rivojlantirish xususiyatlari                                                           |
| D.Xalkuziyeva                                                                       | 107                                           | Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlashning pedagogik va psixologik jihatlari                                      |
| G.Mo'minova                                                                         | 110                                           | Maktabgacha yoshdagi bolalar axloqiy va irodaviy fazilatlarini tarbiyalashda o'yinning ahamiyati                                               |
| Sh.Ibragimova                                                                       | 114                                           | Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv, intellektual va shaxsiy rivojlanish sohalari                                                          |
| F.Abdug'opirova                                                                     | 119                                           | Kognitiv faoliyatni rivojlantirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash – pedagogik muammo sifatida                       |
|  | <b>PSIXOLOGIYA</b>                            |                                                                                                                                                |
| N.Abdullayeva                                                                       | 124                                           | O'smir o'quvchilarda mustaqillik fenomeni va uning konformlilik orqali tushuntirilishi                                                         |
|  | <b>QIYOSIY PEDAGOGIKA</b>                     |                                                                                                                                                |
| K.Abrorxonova<br>D.Yunusova                                                         | 127                                           | O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida Finlandiya tajribasidan foydalanish istiqbollari                                  |
|  | <b>СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ</b> |                                                                                                                                                |
| Г. Тожибоева                                                                        | 131                                           | Диагностика профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов вопросах развития речи школьников                               |
|  | <b>МЕНЕЖМЕНТ В ОБРАЗОВАНИИ</b>                |                                                                                                                                                |
| A. Margupov                                                                         | 138                                           | Управленческая деятельность – как необходимая составная часть руководителя                                                                     |

Jamshid RAVSHANOV,  
TVCHDPI tadqiqotchisi

## O'QUVCHILARDA TAHLILIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA AN'ANAVIY TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

### Annotatsiya

Ushbu maqolada tarix fanini o'qitishda tahliliy kompetensiyalarni shakllantirishda an'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanish, tarix o'qitish metodikasining asosiy fan sifatida kirib kelishi, uning maqsadi va vazifalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Tarix, metodika, tahliliy kompetensiya, og'zaki metod, pedagogika, bayon qilish, o'quvchi, ta'lim-tarbiya.

В данной статье описано использование традиционных методов обучения при формировании аналитических компетенций в преподавании истории, внедрение методики преподавания истории как базовой науки и ее цели и задачи..

**Ключевые слова.** история, методология, аналитическая компетентность, устный метод, педагогика, повествование, студент, образование.

This article describes the use of traditional teaching methods in the formation of analytical competencies in the teaching of history, the introduction of a methodology for teaching history as a basic science and its goals and objectives.

**Key words.** History, methodology, analytical competence, oral method, pedagogy, narration, student, education.

**O**'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, mamlakatimizning izchil rivojlanib borayotgan iqtisodiyotini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, barcha hududlar va tarmoqlarni strategik jihatdan kompleks rivojlantirish masalalarini hal qilish borasida oliy ta'lim tizimi ishtirokini kengaytirish yo'lidagi yana bir muhim amaliy qadamdir.

Tarix o'qitish metodikasining asosiy fan sifatida oliy ta'lim muassasalaridagi tarix fakultetlarining o'quv rejasiga kiritilishi va uni o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad, bo'lajak o'qituvchilarni tarix o'qitishning ilmiy asoslari bilan qurollantirishdan iborat. Tarix o'qitish metodikasi mustaqil fan bo'lib, o'qitish jarayonining obyektiv suratda amal qiladigan o'z qonuniyatlari bor. Ularni bilish va ta'lim-tarbiya jarayonida bu qonuniyatlarga amal qilish, ulardan oqilona foydalanish tarix o'qitishni ilmiy asosda olib borishning muhim sharti hisoblanadi.

Tarixiy materiallarni og'zaki bayon qilish bir qancha usul va metodlar orqali amalga oshiriladi. Ularga monolog, bayon etish, ta'riflash, tavsifnoma berish, tushuntirish, muhokama qilish, suhbat, qisqacha bayon qilish, hikoya, suratlar vositasida ta'riflash, tahliliy (bo'laklarga bo'lib) ta'riflash va boshqalar kiradi.

Tarix fanini o'qitishda o'qituvchining jonli nutqi orqali o'quvchilarning ko'z o'ngida

insoniyat hayotining eng qadimgi davrlardan XIX asr boshlariga qadar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi to'g'risidagi bilimlar singdiriladi. Jonli nutq o'quvchi ongiga tez yetib boradi, uni ma'lum xulosalarga olib keladi, tarixiy jarayonning qonuniyatlarini tushunishni osonlashtiradi, o'quvchilarga tarixiy materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish namunasini ko'rsatib beradi.

O'qituvchining jonli nutqi puxta bilim va malaka manbai bo'lishi bilan birga, juda katta tarbiyalovchi kuchga ega. O'qituvchi nutqidagi mantiq, urg'uning kuchi, dalillarning jonli va ishonarli bo'lishi o'quvchilarning ongiga, his-tuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularni fikrlashga o'rgatadi, ma'lum xulosalarga olib keladi, tarixiy jarayonni, uning qobiliyatlarini to'g'ri tushunishga yordam beradi.

O'qituvchining jonli nutqi o'quvchilarning bilim olishidagi boshqa manbalar, ko'rgazmali qurollar va matnlarning mazmunini tushunish, ular ustida mustaqil ishlash va fikr yuritishga ham yo'l ochib beradi.

O'qituvchi dars jarayonida, o'quv materiallarini og'zaki bayon qilib berish bilan chegaralanib qolmasdan, har xil ko'rgazmali qurollar (rasm-suratlar, illyustratsiya, karikaturalar, qo'shimcha ma'lumotlar, tarqatma materiallar, internet materiallari, multimedialar, o'yinlar)dan ham foydalanadi.

O'qituvchining jonli nutqi o'quvchilarning o'qish-o'rganishi va bilim olish faoliyatini boshqarishni, unga rahbarlik qilishning metodik usullari va vositalarini ham o'zida mujassamlashtiradi. Jonli nutqning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish o'quvchilar bilimining puxta va mustahkam bo'lishini, o'quvchini mustaqil ishini tashkil qilishiga imkon yaratadi. Hikoya metodida tarixni bayon qilish tarixiy voqeaning to'liq namunasini yoritib beradi. Hikoya metodining asosiy didaktik vazifasi o'quvchilarda tarixiy voqea haqida aniq va ko'rgazmali tasavvur hosil qilishdan iboratdir.

Hikoyaning aniq bo'lishi o'quvchilarning tarixiy hodisalardagi mohiyatni va tarixiy makon, tarixiy davr, tarixiy ijtimoiy harakat, uni harakatga keltiruvchi kuchlari, ijtimoiy guruh, tabaqa, qabila, urug', xalq, millat va ularning taraqqiyot bosqichlari xususiyatlarini tushunib olishlariga yordam beradi. Hikoya yorqin, muhim tarixiy faktlar asosida tuziladi. Hikoya tarixiy materialni og'zaki bayon qilish metodi sifatida asosan quyidagi hollarda:

1. ta'lim-tarbiya jihatidan muhim va ularni o'rganish o'quvchilar ongida chuqur va erkin iz qoldiradigan yirik tarixiy voqealarni bayon qilishda.

2. o'quvchilarda yangi tarixiy hodisalar haqida mazmunli va aniq tasavvur yaratish zarur bo'lgan paytda qo'llaniladi. Hikoya o'quvchilarda tarixiy voqealar haqida jonli tasavvur yaratish bilan birga ularni ma'lum umumiy xulosalarga ham olib keladi. Ma'ruza metodi faqat ajratilgan vaqtning ko'p yoki ozligi bilan emas, balki o'zining mazmuni, o'qitish va o'rganishning metod va usullari jihatidan ham oddiy ma'ruzalardan farq qiladi. O'qituvchi ma'ruza mavzusi bilan birga uni bayon qilish rejasini e'lon qiladi.

O'qituvchi og'zaki bayon qilish orqali o'quvchilarning diqqatini yosh avlod ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish va ularda milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish hamda axloqiy jihatdan muhim bo'lgan tomonlariga qaratadi, chiqarilgan xulosalarni qisqa va aniq ifodalab beradi.

Og'zaki bayon qilish, ya'ni ma'ruzada suhbat metodining elementlari qo'llaniladi. O'quvchilarning bilish faoliyatini jadallashtirish, ularning diqqatini ma'ruzaning muhim jarayonlariga jalb qilish maqsadida savollar berib boriladi. Ma'ruza bayon qilingan material yuzasidan yakuniy suhbat bilan tugaydi.

Ma'ruzaning muhim joylarini o'quvchilar yozib olishi uchun nisbatan sekin o'qiladi. Ma'ruza yosh avlod nutqini rivojlantirish, ularning o'z fikrlarini erkin ayta olishlariga

imkon beradi, ma'ruzada V.N.Bernadskiy tomonidan qo'yilgan asosiy talablar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Bu talablar quyidagilardan iborat:

1. Ma'ruza ilmiy jihatdan mukammal bo'lishi kerak.
2. Ma'ruza darslik mazmunidan keng, uni ko'p jihatdan aniqlashtirilishi lozim. Ma'ruza mazmuni darslik mazmunidan qisqa yoki aynan shu mazmundan iborat bo'lib qo'yilsa, uni o'quvchilar butunlay tinglamay qo'yishadi.
3. O'quvchilarni o'tmishni jonli idrok etishlari uchun ma'ruza mazmunan ko'rgazmali bo'lishi darkor.
4. Ma'ruza o'quvchilarni fikrlashga o'rgatishi, tarixiy voqealarni tahlil qilish va umumlashtirish namunasini ko'rsatishi, o'quvchilarning tarixiy fikrlashini tarbiyalashi lozim.
5. Ma'ruzaning o'quvchilarga yetib borishi uchun, o'qituvchi o'zining nutqi ustida ko'p ishlashi shart.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-sonli Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari"dagi qarori. // 2017-yil 21 apreldagi 79 (6773).
2. Babanskiy YU.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktablarida o'qitish metodlari. – T.: O'zbekiston. –1990.
3. Sa'diyev A. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish. – T.: O'qituvchi.– 1993
4. Maxkamov S. Tarixdan o'quv o'yinlari Uzluksiz ta'lim jurnali. 2006 № 1.

**Komiljon ABDULLAYEV,**

Namangan davlat universiteti, "Ixtisoslashtirilgan Ilmiy kengash" kotibi,  
pedagogika fanlari nomzodi

## ADABIYOT DARSLARIDA TARIX, TASVIRIY SAN'AT, MUSIQA FANI MATERILLARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

### Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey adabiyot darslari jarayonida fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish vositasi sifatida tarix, tasviriy san'at, musiqa fani materiallaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari ko'p yillik amaliy tajribalar asosida yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Adabiyot darsi, fanlararo integratsiya, tarix, tasviriy san'at, musiqa, obraz, tarixiylik tamoyili, yozuvchi, musavvir, ohang.

В статье освещены педагогико-психологические основы использования материалов по истории, изобразительному искусству, музыке как средству налаживания межпредметной интеграции в процессе уроков литературы в общеобразовательных школах, академических